

UDK: 37.02:091.3:018.43

TA'LIM SOHASIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rustamova M.M.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti PhD, dotsent

Abdulboriyeva N.M.

"Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sohasida interfaol metodlardan foydalanish afzalligi va o'quvchilar bilim samaradorligini oshirishdagi qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Tarbiya darsligida keltirilgan metodlar tahlil qilingan va interfaol metodlardan bir qancha misollar keltirilgan. Boshlang'ich sinf Tarbiya darsligi asosida interfaol dars ishlanma keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, interfaol, innovatsiya, pedagogik texnologiya, dars ishlanma, 4K modeli

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества использования интерактивных методов в сфере образования и их вклад в повышение эффективности усвоения знаний учащимися. Анализируются методы, представленные в учебнике «Тарбия», и приводятся примеры интерактивных методик. Также представлена разработка интерактивного урока на основе учебника «Тарбия» для начальных классов.

Ключевые слова: образование, интерактив, инновации, педагогические технологии, разработка уроков, модель 4К

USE OF INTERACTIVE METHODS IN EDUCATION

Annotation: This article discusses the advantages of using interactive methods in education and their contribution to improving students' learning effectiveness. The methods presented in the "Tarbiya" textbook are analyzed, and several examples of interactive techniques are provided. Additionally, an interactive lesson plan based on the "Tarbiya" textbook for primary school students is included.

Keywords: education, interactive, innovation, pedagogical technology, lesson development, 4K model

*"Maktabda o'qitish metodikasi
o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni
ham, muhit ham o'zgarmaydi"*

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 6- bandida:

- Xalq ta'limi hodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari;

- A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etilishi haqida buyruqga ko'ra ta'lim sohasida islohotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Interfaol ta'lim metodlari zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar an'anaviy dars usullariga qaraganda o'quvchilarning bilimni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi. Ko'pgina tadqiqotlar interfaol metodlar ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Masalan, Johnson & Johnson guruhiiy o'qitish usullari orqali o'quvchilarning bilim darajasi va ijtimoiy ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanishini ko'rsatgan. Shuningdek, Slavin hamkorlikda o'qitish metodining akademik natijalarga ijobiy ta'sirini ta'kidlagan.

O'zbekistonda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan: Shodmonov U. "Zamonaviy ta'limda interfaol metodlarning ahamiyati" maqolasida o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashi bo'yicha tahlillar keltirilgan. Hasanboyeva M. "Interfaol ta'lim metodlari orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash" nomli tadqiqotida interfaol o'qitish usullarining milliy ta'lim tizimiga moslashuvi yoritilgan.

Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim modeli – passiv, faol va interfaol ta'limga bo'linadi.

Passiv usul. O'quvchi o'qituvchining so'zida, aytib berishi, ma'ruzasi, og'zaki tushuntirishi, bayon etishidano'quv materiallarini o'zlashtirishadi. Uy vazifalarini qo'llanma, darsliklardan o'qib o'rganadi. Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida aloqalar tizimi o'rnatilmagan. O'quvchi o'z darajasida- qobiliyati, qiziqishi, istagi, xohishi darajasida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

Faol usul. An'anaviy usuldan keng foydalaniladi o'qituvchi ta'lim mazmunini bayon etish bilan bor kuchini maxoratini ishga solib dalil, ko'rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida yaxshilab tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan fikr almashinadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechadi. Uy ishlarini ham mustaqil ishlash, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta'lim mazmunini birmuncha o'zlashtirishga erishadilar.

Interfaol usul. O'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit qaratiladi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir-birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo'lib, vaqt o'tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar.

Hozirgi yangi O'zbekistonning yosh avlodlari uchun interfaol ta'lim aynan mos keladi.

"Innovatsiya- yangilik" so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasa-da, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Innovatsiyaga pedagogikada turli ta'riflar keltirilgan. Innovatsiya- (ingl. Innovationas- in - kiritish, novatsiya- yangilik, yangilik kiritish) - ilmiy-texnik resurslar, pedagogika fani yutuqlari, ilg'or tajribalardan unumli foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli ijodiy tashkil etish natijasidir.

Interfaol (“inter” bu o‘zaro,- “akt” – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilish, o‘zaro kommunikativ aloqa, motivatsiya (ta’lim motivatsiyasi, tarbiya motivatsiyasi) asosida ta’lim-tarbiya jarayoning tashkil etishning samarali uslubidir.

Quyida an’anaviy ta’lim kamchiliklarini ko‘rishimiz mumkin.

- ☐ Darsning bir qolipdaligi, bir xilligi;
- ☐ Boshlang‘ich ma’lumot berilib, uni o‘zlashtirish jarayoni uyga reja, vazifa orqali amalga oshadi;
- ☐ O‘quvchilar passiv eshituvchi va mustaqilligi yo‘q;
- ☐ O‘quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi;
- ☐ Qayta aloqalar yo‘lga qo‘yilmaydi;
- ☐ Har bir faoliyat o‘rtacha o‘quvchiga yondashuv asosida kechadi;
- ☐ Ta’lim mazmuni asosan o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday dars jarayonida hozirgi avlod bolalarini uzoq muddat darsga jalb qilib olib o‘tirishning iloji yo‘q. shuning uchun ularga ta’limda innovatsiyalar qo‘llab turish zarur. Ana o‘sha innovatsiyalardan biri yangi interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar bilim sifati samaradorligini oshirish, o‘qishga izlanishga, ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon eta olishga yo‘naltirilgan.

Endi esa interfaol metodlar asosida dars tashkil etishning afzalliklarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

- ☐ O‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.
- ☐ O‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi-o‘quvchilar ta’limiy aloqa o‘rnatiladi.
- ☐ O‘qitish usulari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlar).
- ☐ O‘quv jarayoni o‘quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi.
- ☐ O‘zaro axborot berish, olish, qayat ishlash orqali o‘quv materialiy yaxshi esda qoladi.
- ☐ O‘quvchida o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish ko‘nikmalari shakllanadi.

□ O'quv jarayonida – o'quvchining o'z-o'ziga baxo berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

□ O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayonida ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.

□ Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

□ Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Interfaol metodning ham qator kamchiliklari bor, albatta. Bular:

□ O'quv- biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi.

□ Interfaol mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarni kerakligicha nazorat etib borishning imkoniyati bo'lavermaydi.

□ Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muommoni to'laqonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi xollari kuzatiladi.

□ Guruhlarda o'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, o'qituvchi hozirgi zamon talabiga mos yo'nalishni, usulni tanlab dars jarayonini tashkil qilishlari kerak.

2020-yil "Tarbiya" darsligi birinchi marta chop etilgan. Darslikda asosan, sodda topshiriqlar bo'lgan, hozirgi yangi 2023-yilda 4K modeli asosida ishlab chiqilgan Tarbiya darsligi tubdan farq qiladi. Undagi communication (muloqot), colloboration (hamkorlik), creativity (ijodkorlik) va critical thinking (tanqidiy fikrlash) bularning barchasini interfaol metodlar orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu darslikda asosan amaliy topshiriqlarga ko'proq ahamiyat qaratilgan, interfaol metodlar keltirilgan, nazariy ma'lumotlar esa kam berilgan. Darslik soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan. 3-4- sinf tarbiya darsliklari asosan hayotiy tarbiyaga yo'naltirilgan mavzular keltirilgan. Misol uchun: "His tuyg'ularimiz", "Kamsitish nima?", "Tenglik nima?", "O'zimni boshqaraman", "Saboq olishni

o'rganamiz", "Chet tillari nima uchun o'rganiladi" kabi o'quvchilar o'zlarini anglashlari, tahlil qilishlariga undovchi mavzular bor.

3-sinf Tarbiya darsligi asosida dars ishlanmalar

Dars mavzusi: "His-tuyg'ularimiz"

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga his tuyg'ular haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarga his tuyg'ularni tushunish, ifodalash va to'g'ri boshqarishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarga hammaning his tuyg'ularni hurmat qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: televizor, video, tarqatma materiallar.

Dars bosqichlari:

1. Tashkily qism(5 daqiqa)

☐ O'quvchilar bilan salomlashish.

☐ Darsga tayyorgarlik ko'rish.

2. Kirish qismi (10 daqiqa)



Darsimiz davomida shu kabi his tuyg'ularni ifodalashni o'rganamiz.

-Ushbu qisqa videoda qanday his tuyg'ularni ko'rdingiz? Sanab bering.

3. Asosiy qism (10 daqiqa)

Inson o'z atrofidagi voqea-hodisalarga loqayd bo'la olmaydi. Har birimiz ham hayotda kulamiz, yig'laymiz, xursand yoki xafa bo'lamiz, jahlimiz chiqadi, qoyil qolamiz, faxrlanamiz, qo'rqamiz va hokazo.

Kayfiyatingiz o'zingizga ham, atrofdagilarga ham ta'sir qilishini bilib oldingiz.

Yomon kayfiyat sog'lig'imizga zarar keltirishi, boshqalarning kayfiyatini buzib

qo'yishi mumkin. Yaxshi kayfiyat esa sog'liq uchun foydali, insonning umrini uzaytiradi.

Har qanday hissiyot insonning nafaat o'ziga va atrofdagilarga ham uning qanday ahvoldaligini ko'rsatib turuvchi ishoradir. Birovning hissiyoti, kayfiyati qandayligini to'g'ri topa olsangiz, odamlar bilan muomala qilishda qiynalmaysiz.



4. Mustahkamlovchi qism (15 daqiqa)

“Hissiotni to'g'ri nomla” moslashtirish metodi.

	a. hafa		e. hursand
	b. uyalgan		f. yig'lagan
	c. qo'rqgan		g. jahldor
	d. uyquchan		h. hayron

“Hissiotni top” rolli o'yinni

O'quvchi boshiga hissiyot tasvirlangan tasma taqadi va u qaysi hissiyot ekanligini topishi kerak bo'ladi. Gaqrmadan mimikalari orqali tahminiy hissiyotlarni ko'rsatadi, qolgan o'quvchilar esa ha yoki yo'q deb javob berishadi. Bu o'yin ularrga hissiyotni to'g'ri ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Yakunlovchi qism (5 daqiqa)

XULOSA

O'quvchilardan dars davomida qanday yangi hissiyotlarni bilib olganlari uni kerakli joyda o'rinli qo'llashni o'rganib olganliklari haqida gaplashilinadi. O'qituvchi darsni xulosalaydi.

Interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu metodlarni qo'llash natijasida ta'lim samaradorligi oshadi va o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-sonli "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 11-may, b-3-4.
2. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva, "Interfaol ta'lim sifat kafolati", Toshkent-2008, b-11.
3. Tal'at G'afforova, Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Tafakkur nashriyoti, Toshkent-2011, B-91
4. Oynisa Musurmanova, "Pedagogik texnologiyalar- ta'lim samaradorligi omili, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2020, B-64
5. Oynisa Musurmanova, "Pedagogik texnologiyalar- ta'lim samaradorligi omili, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2020, B-69
6. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva, "Interfaol ta'lim sifat kafolati", Toshkent-2008, b-11.
7. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva, "Interfaol ta'lim sifat kafolati", Toshkent-2008, b-8-9
8. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva, "Interfaol ta'lim sifat kafolati", Toshkent-2008, b-9
9. Tal'at G'afforova, Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Tafakkur nashriyoti, Toshkent-2011.
10. O. V. Usmanova, Y.V. Risjukova, "Tarbiya" 1-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun, novda entertainment, Toshkent-2023.